



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 27-avgust, № 176 (9071)


Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZARO DO'STLIK VA KO'P QIRRALI AMALIY HAMKORLIK MUNOSABATLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi.



Iordaniya Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan, 12 ta hududdan iborat davlat. 11,7 million aholi istiqomat qiladi. Jahon bankingning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Iordaniyaning yalpi ichki mahsuloti 53,3 milliard dollarni, aholi jon boshiga 4700 dollarni tashkil qilgan. Tashqi savdo aylanmasi 37,1 milliard dollardan oshadi. Iordaniya, asosan, fosfatlar, tayyor kiyim-kechaklar, to'qimachilik va kimyo sanoati mahsulotlari eksport qiladi. Fosfatlar bo'yicha jahondagi yetakchi eksportyorlardan biri, bu mineralar, asosan, o'g'it va kimyoviy moddalar sifatida eksport qilinadi. Iordaniyaning to'qimachilik sanoati mahsulotlarining katta qismi AQSH va Yevropa Ittifoqiga yo'naltirilgan.

Iordaniya iqtisodiyoti, asosan,

xizmatlar sohasiga asoslangan bo'lib, yalpi ichki mahsulotining 75,5 foizini tashkil etadi. Sanoatning hisssasi 19,6 foiz, qishloq xo'jaligini esa 4,9 foiz.

Turizm milliy daromadning muhim qismi hisoblanadi. Iordaniyada tabiiy resurslar, xususan, neft va gaz zaxiralari kam. Davlat fosfat, kaliydan tayyor mahsulotlar va kimyoviy moddalar eksportiga tayanadi.

Xalqaro moliyaviy yordam Iordaniya iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va Ko'rfaz mamlakatlari kabi donorlardan yordam oladi. Ushbu hamkorliklar, shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilgan sa'y-harakatlar bilan birga, Iordaniyaga

qiyin geosiyosiy va iqtisodiy sharoitda barqarorlikni saqlab qolishga yordam bermogda.

Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha jahon reytingida Iordaniya 69-o'rin, mintaqaviy reytingda esa 6-o'rinni egallaydi. Ishbilarmonlik muhiti bo'yicha jahon reytingida Podshohlik 65-o'rinda turadi.

Iordaniya dunyodagi eng yirik fosfat ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi va bu borada "TOP – 5" talikka kiradi, uning tasdiqlangan zaxiralari 1,5 milliard tonnadan oshadi. 2024-yilda barcha konlarda quruq fosfatning umumiy ishlab chiqarish hajmi 11,5 million tonnaga yetgan.

O'zbekiston 1993-yilda Iordaniya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan va hamkorlik qilib keladi. Davlatlarimiz

o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2024-yilda qariyb 4,6 million dollarni tashkil etdi va joriy yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkich 4,3 million dollarga yetdi. Tomonlar tovar ayirboshlash hajmini bir necha karra oshirish imkoniyatiga ega va bundan samarali foydalanilmoqda.

25-avgust kuni Samarqand shahri aeroportida Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi. Ikki davlat rahbarlari Samarqand shahrining ulug'vor tarixiy obidalarini, muqaddas qadamlarni ziyorat qildi. Tashrifning asosiy tadbirlari 26-avgust kuni Samarqand shahridagi Kongress markazida o'tkazildi.

Dastlab, Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Kongress markazi binosi oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston Prezidenti oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ikki mamlakat davlat madhiyalarini ijro etdi. O'zbekiston Prezidenti va Iordaniya Podshohi faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiya a'zolarini qutladilar.

Muzokaralar oldidan, davlat tashrifi dasturi doirasida Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Kongress markazida xorijiy bozorlar uchun xalqaro standartlarga javob beradigan keng turdagi yuqori sifatli mahsulotlar ko'rgazmaga qo'yilgan. Oliy martabali mehmonga tog'-kon, farmatsevtika, kimyo, to'qimachilik, zargarlik sanoati, qishloq xo'jaligi va axborot texnologiyalari kabi sohalaridagi texnologik bosqichlar, ishlab chiqarish

quvvatlari, innovatsiyalar va qo'llanilayotgan eng ilg'or uskunalar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Ekspozitsiyadan yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor sanoat mahsulotlari namunalari: dori vositalari, tibbiy asbob-uskunalar, mineral o'g'itlar, to'qimachilik, trikotaj va zargarlik buyumlari, hunarmandchilik mahsulotlari, IT yechimlari va boshqalar o'rin olgan.

Iordaniya yetakchisi O'zbekiston mahsulotlari va sanoat salohiyatini yuksak baholadi. Davlat rahbarlari yetakchi korxonalar kooperatsiyasini kengaytirish, o'zaro tajriba almashish va texnologiyalar transferini amalga oshirish muhimligini ta'kidladilar.

Shundan so'ng Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynni muzokaralari bo'lib o'tdi.

Siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida Iordaniya Podshohi davlatimiz rahbariga tashrif bilan kelishga taklif qilgani hamda Iordaniya delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan iliq va samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Diplomatik munosabatlar tarixidagi ilk oliy darajadagi tashrif ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berishi va uni keng qamrovli sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Iordaniya o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali amaliy hamkorlik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani, ikki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyalari o'xshashligi qayd etildi.

Yetakchilar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti

va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida samarali hamkorlik olib borilayotganini mamnuniyat bilan qayd etib, tashabbuslarni o'zaro qo'llab-quvvatlashni faol davom ettirish zarurligini ta'kidladilar.

Davlatlar tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi konstruktiv muloqotni va idoralar o'rtasidagi yaqin aloqalarni davom ettirish zarurligi qayd etildi.

Ikki tomonlama savdo ko'rsatkichlarini karrasiga oshirish, qo'shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyorlik tasdiqlandi.

Kimyo va to'qimachilik sanoati, "aqlii" qishloq xo'jaligi, geologiya, sog'liqni saqlash va farmatsevtika, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirishga kelishib olindi.

Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashini ishga tushirib, joriy yil yakunigacha ularning ilk yig'ilishlarini o'tkazish taklifi bildirildi. Ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va ishlab chiqaruvchilari ishtirokida O'zbekiston – Iordaniya biznes forumining o'tkazilishi ishbi-larmon doiralari o'rtasida uzoq muddatli sheriklik aloqalarini o'rnatishga xizmat qiladi.

Madaniy, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvlarni, shu jumladan, qo'shma madaniyat haftaliklari, konsertlar, ekspozitsiya va ko'rgazmalar o'tkazish orqali yanada faollashtirishga tayyorlik bildirildi.

O'zbekiston va Iordaniya xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq tarixga ega bo'lib, bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy ma'naviy merosni birgalikda o'rganish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ikki mamlakat islomshunoslik markazlari va institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Dunyo nigohi

ISTIQBOLNI KO'ZLAGAN DIPLOMATIYA

Xorijiy ekspertlar oliy darajadagi birinchi
O'zbekiston – Iordaniya sammiti yakunlari haqida

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha mutaxassis (Ispaniya):

– Iordaniya Podshohining O'zbekistonga tarixiy tashrifi va Samarqand shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro hamkorlikni kengaytirish, mamlakatingizning jahon miqyosidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan samarali tashqi siyosatining yorqin tasdiqi bo'ldi.

O'zbekiston yetakchisi rahnamoligida konstruktiv, ochiq va ishonchli

muloqot ta'minlandi, uning natijasida iqtisodiyot hamda sarmoyadan tortib, fan, ta'lim va turizmga ega bo'lgan asosiy yo'nalishlarni qamrab olgan ikki tomonlama 15 ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tarixida ilk bor viza tartibini bekor qilish va muntazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi, bu esa ishbi-larmonlik va madaniy aloqalar uchun yangi uflarni ochadi.

Investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi bitim, shuningdek, amaliy hamkorlikning kuchli

mexanizmlariga aylanadigan qo'shma komissiya va Ishbilarmonlar kengashini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Tomonlar sanoat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, geologiya, sog'liqni saqlash va boshqa sohalaridagi loyihalarni faol amalga oshirishga tayyor ekani alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, Prezident Shavkat Mirziyoyev nafaqat iqtisodiy, balki gumanitar sohaga ham e'tibor qaratib, madaniy-ma'rifiy va ilmiy almashinuvlarni, islomshunoslik sohasidagi hamkorlikni faollashtirishni ilgari surdi.



YAPONIYA TASHQI ISHLAR VAZIRI SAMARQANDGA KELDI

Rasmiy tashrif bilan yurtimizga kelgan Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takeshi Ivaya boshchiligidagi delegatsiya 26-avgust kuni Samarqand shahrida bo'ldi.

Mehmonlarni Samarqand xalqaro aeroportida O'zbekiston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari B. Usmonov va Samarqand viloyati hokimligi mas'ullari kutib oldi.

Yaponiyalik diplomat dastlab "SamAvto" zavodida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi. Mazkur korxonada 2007-yildan buyon "ISUZU Motors Ltd" kompaniyasi va "Itochu" korporatsiyasi bilan hamkorlikda "ISUZU" shassis asosida avtobuslar va yuk mashinalari, maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Zamonaviy, xalqaro

standartlarga javob beradigan mazkur texnika vositalari ichki bozor bilan birga xorijga eksport qilinadi.

Shundan so'ng delegatsiya Samarqand tumanidagi "Bobur agro innovatsiya" fermer xo'jaligida bo'ldi. Bu yerda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ko'magida ushbu davlatdan keltirilgan olma navlari parvarishlanmoqda.

Takeshi Ivaya fermer bilan suhbat chog'ida xo'jalikda olma va uzum yetishtirishning o'ziga xos tomonlari, qo'llanilayotgan innovatsion uslublar

bilan qiziqdi. Mahalliy va xorijdan keltirilgan olma navlarining ob-havo sharoitiga moslashuvchanligi va kasalliklarga chidamligi, sifati, xaridorgiriligiga e'tibor qaratildi.

Yaponiya tashqi ishlar vaziri Samarqanddagi tarixiy-madaniy yodgorliklarda ham bo'lib, xalqimizning boy tarixi va madaniyati, ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.

G'olib HASANOV,
O'za muxbiri.

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

ISTIQLOL – YUKSAK MARRALAR, BUYUK MAQSADLAR SARI ILHOMLANTIRUVCHI KUCH

Tanzila NORBOYEVA,
Oliy Majlis Senati Raisi

Barchamiz eng ulug', eng aziz bayramimizni har yilgidan-da ko'tarinki ruhda nishonlash tadorigidamiz. El-yurtimiz uchun qadr-qimmatli cheksiz, ahamiyati ulug', bebaho ne'mat bo'lgan mustaqillik tantanalarini mehnat yutuqlari, o'ziga xos tuhfalar, ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik bilan nishonlash ezgu an'anaga aylangan. Beadad shukrki, mustaqilligimizning 34 yilligi ham ko'pdan-ko'p xushxabarlar, yig'liklar, beqiyos o'zgarishlar bilan kutib olinmoqda. Yangi O'zbekistonning bugungi jadal taraqqiyoti, jahon maydonidagi tobora ortib borayotgan obro'-e'tibori yanada yuksak pardalarda tarannum etilmoqda.

Shiddatli
islohotlarning yangi
to'lqini

Insonning ertangi kunga bo'lgan ishonchi, quvonchu shirin tashvishlari, intilishlari zamirida aslida Vatanga bo'lgan muhabbat yotadi. Duolarimizning har birida bejizga "Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin", deb aytmaymiz-da. Chunki Vatan – bu ota yurt, ajdodlar merosi, ota-onang izlari qolgan ko'chalar, ilk bahorni tanigan, varrak uchirgan kengliklaring...

Vatan – bu milliylik, o'zlik, ma'naviyat va xotiralarning jamlamasidir. Shu sababli har bir inson uchun ona Vatanning

erkinligi va obodligi eng oliy qadriyatdir.

Mustaqillik, avvalo, xalqimizni ana shu baxtga muyassar etdi. U bizga o'zimiz xohlagandek adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish, o'z milliy davlatchiligimizni rivojlantirishga imkoniyat yaratdi.

Yana sanoqli kunlardan keyin ana shu qutlug' sananing 34 yilligini ulkan shodiyona sifatida keng nishonlaymiz. Bayram arafasida bosib o'tgan yo'limiz, amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilib, bugungi yutuq va marralarni ko'z o'ngimizdan o'tkazishimiz tabiiy.

"Yangi O'zbekiston" iborasini eshitganda, eng avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha

iqtisodiy dunyoqarash, yangicha iqtisodiy diplomatiya, yangi yutuqlar ko'z oldimizda gavdalanadi. Keyingi bir necha yilda mamlakatda qancha o'zgarish, yangilanish bo'lgani haqida soatlab, hatto kunlab gapirish mumkin.

Uzoqqa bormaylik, bundan 7-8 yil oldingi holatni ko'z oldingizga keltirib: odamlarimizni xorijiy valyutalarni sotib olish, investitsion muhitning yaxshi emasligi, fuqarolikka ega bo'lish, kishi o'zi xohlagan hududdan uy-joy va mol-mulk sotib olish huquqi hamda poytaxtga ro'yxatga qo'yish bilan bog'liq qator muammolar yillar davomida qiyinab kelgan rost.

Inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar tufayli bugun fuqarolarning bu boradagi muammolariga barham berildi, tashvishlari aridi.

Yaqin o'tmishgacha mamlakatimiz iqtisodiyoti, asosan, xomashyo savdosiga bog'lanib qolgan edi. Bugun esa yuqori texnologiyali sanoat, zamonaviy agrar tarmoq, xizmat ko'rsatish kabi sohalar iqtisodiyotning asosiy drayverlariga aylandi, axborot texnologiyalari sohasi jadallik bilan rivojlanmoqda.



OʻZARO DOʻSTLIK VA KOʻP QIRRALI AMALIY HAMKORLIK MUNOSABATLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI



Tomonlar bagʻrikeng va maʼrifatli islom gʻoyalari birgalikda ilgari surish zarurligi haqida yakdil fikrga keldilar. Davlatimiz rahbari Podshoh Abdulla II tomonidan bundan oʻn yil oldin boshlangan “Aqaba jarayoni” tashabbusini yuqori baholab, ushbu muhim tashabbusning navbatdagi yigʻilishlaridan birini Samarqand shahrida oʻtkazishni taklif etdi.

Ikki mamlakat poytaxtlari oʻrtasida muntazam aviaqatnovlarning yoʻlga qoʻyilishi va vizasiz rejim joriy qilinishi ishbiarmonlik aloqalari va oʻzaro sayyohlar oqimining koʻpayishiga xizmat qilishi taʼkidlandi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida Podshoh Abdulla II ibn al-Husayn davlatimiz rahbarini lordaniyaga tashrif bilan borishga taklif etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Sheriklik munosabatlarini mustahkamlash toʻgʻrisida qoʻshma bayonot qabul qildilar.

Umuman, tashrif doirasida 15 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi, jumladan:

- ekstraditsiya toʻgʻrisida bitim;
- investitsiyalarni oʻzaro ragʻbatlantirish va himoya qilish toʻgʻrisida bitim;
- qoʻshma komissiya tuzish toʻgʻrisida bitim;
- viza talablarini bekor qilish toʻgʻrisida bitim;
- oliy taʼlim va ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bitim;
- turizm sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bitim;

- havo qatnovi toʻgʻrisidagi hukumatlararo bitimga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida bayonnomasi;
- tovarlar va transport vositalari harakati toʻgʻrisidagi dastlabki

maʼlumotlarni onlayn almashish toʻgʻrisida bayonnomasi;

- qishloq xoʻjaligi sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bitim;
- oʻsimliklar karantini va himoyasi sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bitim;
- veterinariya sohasida hamkorlik toʻgʻrisida bitim;
- standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida memorandum;
- din ishlari boʻyicha anglashuv toʻgʻrisida idoralararo memorandumlar;
- Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasini.

Iordaniya Podshohining davlat tashrifi doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Iordaniyaning “An-Nahda” (“Renessans”) ordeni bilan taqdirlash marosimi boʻlib oʻtdi.

Ushbu mamlakatning oliy mukofotini

davlatimiz rahbariga Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn shaxsan topshirdi.

– Ushbu mukofotni koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi umumiy saʼy-harakatlarimizning munosib eʼtirofi, shuningdek, mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan Oʻzbekiston xalqiga doʻstona munosabat va hurmat ifodasi sifatida katta mamnuniyat bilan qabul qilaman, – dedi Prezidentimiz.

Iordaniya Podshohining Oʻzbekistonga tarixiy tashrifi va samarali muzokaralar natijasida mamlakatlarimiz oʻrtasidagi munosabatlar yangi sheriklik darajasiga koʻtarildi.

Yetakchilar siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga kelishib oldilar.

Davlatimiz rahbari Podshoh Abdulla II ibn al-Husayn Iordaniyaning

jadal rivojlanishiga, mamlakatning tinchliksevar tashqi siyosatini amalga oshirishga, xalqaro hamjamiyadagi nufuzi va taʼsiri yuksalishiga qoʻshgan hissasini alohida qayd etdi.

Prezidentimiz ushbu yuksak mukofot Oʻzbekiston va Iordaniya xalqlari oʻrtasidagi mustahkam doʻstlik ramzi sifatida munosib oʻrin egallashini taʼkidladi.

Davlatimiz rahbari soʻzining yakunida Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynga mukofot uchun yana bir bor minnatdorlik bildirib, Iordaniya xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Oʻzbekiston – Iordaniya sammiti yakunida birgalikda daraxt ekish marosimi boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Samarqanddagi Kongress markazi bogʻida eman ekdilar.

Marosim Oʻzbekiston – Iordaniya munosabatlarida yangi davr boshlanayotgani hamda yetakchilarning

xalqlarimiz oʻrtasidagi doʻstlikni mustahkamlashga intilishi ramzi boʻldi.

Tadbirlar yakunlangach, Samarqand xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuzatib qoʻydi.

Aytish mumkinki, Prezidentimiz taklifiga binoan Oʻzbekiston – Iordaniya diplomatik munosabatlarini tarixida ilk bor Iordaniya Podshohining yurtimizga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab bergani va uni keng qamrovli sheriklik darajasiga koʻtarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli boʻldi. Ikki kun davomida davlatlar yetakchilarining samimiy va doʻstona muloqotlari, samarali muzokaralari natijasida hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor va istiqbolli yoʻnalishlari belgilandi hamda ularni kengaytirib borishga kelishib olindi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Gʻolib HASANOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
OʻZA maxsus muxbirlari.

Aks sado

STRATEGIK SHERIKLIKKA QOʻYILGAN QADAM

Samarqand shahri tarixiy diplomatik voqeaga guvoh boʻlmoqda – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn mamlakatimizga tashrif buyurdi. Bu tashrif ikki davlat oʻrtasida oʻrnatilgan diplomatik aloqalar tarixida ilk oliy darajadagi uchrashuv sifatida qayd etildi.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston va Iordaniya oʻrtasida diplomatik munosabatlar 1993-yilda oʻrnatilgan boʻlib, mazkur tashrif ikki davlat munosabatlarini tarixida Iordaniya Podshohligi rahbarining mamlakatimizga ilk davlat tashrifi sifatida tarixga kirdi.

Samarqandda oʻtkazilgan tantanali kutib olish marosimi oʻzaro ishonch va hurmatning yuksak darajasini koʻrsatdi. Podshohning qadimiy Samarqandning boy madaniy merosi

bilan tanishishi esa xalqlarimizning maʼnaviy yaqinligi va umumiy qadriyatlarini ramziy tarzda ifodaladi.

Shuningdek, Iordaniya Podshohi Oʻzbekistonning yetakchi sohalarida erishgan yutuqlarini namoyon etgan sanoat koʻrgazmasi bilan ham tanishdi. Bu holat tomonlarning amaliy hamkorlik va tajriba almashishga intilishini yana bir bor tasdiqladi.

Oliy darajadagi muzokaralar davomida ikki davlat rahbarlari munosabatlarni yangi, strategik

bosqichga koʻtarishga kelishib oldi. Siyosiy muloqotni kengaytirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, madaniy-gumanitar almashinuvni rivojlantirish va investitsiyaviy sheriklikni faollashtirish boʻyicha kelishuvga erishildi. Imzolangan ikki tomonlama hujjatlar huquqiy yordam, taʼlim va fan, turizm, qishloq xoʻjaligi, veterinariya hamda standartlashtirish kabi muhim yoʻnalishlarni qamrab oldi, bu esa kelgusi amaliy hamkorlik uchun mustahkam asos yaratadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Iordaniya Podshohligining eng oliy mukofoti – “An-Nahda” ordeni bilan taqdirlanganini alohida taʼkidlash

joiz. Bu nafaqat davlatimiz rahbarining xizmatlariga berilgan yuksak bahoning ifodasi, balki xalqlarimizning doʻstligi, hurmati va ishonchining timsoli hisoblanadi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning tashrifi oʻzbek – Iordan munosabatlari taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi hamda oʻzaro hurmat va strategik sheriklik ruhida har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kuchli turtki berdi.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining
Fan, taʼlim va sogʻliqni
saqlash masalalari qoʻmitasi raisi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning mamlakatimizga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

YANGI TASHABBUSLAR

Xususan, tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari hamrohligida mahalliy sanoat mahsulotlari koʻrgazmasi tashkil etildi. Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynga Oʻzbekistonda ishlab chiqarilayotgan eksportbop, xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori sifati mahsulotlar namoyish etildi. Farmatsevtika, toʻqimachilik, qishloq xoʻjaligi, axborot texnologiyalari, zargarlik va boshqa sohalaridagi ishlanmalar mehmonda katta taassurot qoldirdi.

Oʻzbekiston sanoat salohiyati yuksak baholandi. Davlat rahbarlari sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, texnologiyalar transferi va tajriba almashuvni yoʻlga qoʻyish masalalarida oʻzaro qiziqishlar mavjudligini taʼkidlashdi. Shu bilan birga, Samarqanddagi muzokaralar davomida siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va xalqaro masalalar muhokama qilinib, qator strategik kelishuvlarga erishildi.

Umuman olganda, diplomatik munosabatlar tarixidagi ilk oliy darajadagi ushbu tashrif ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlarni keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga koʻtarishni maqsad qilgan. Tarafalar oʻzaro islohotlar jarayonidagi oʻxshashliklarga eʼtibor qaratib, kelgusidagi hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Jumladan, muzokaralar doirasida ikki davlat oʻrtasidagi savdo hajmini bir necha barobar oshirish, kimyo, toʻqimachilik, farmatsevtika, geologiya, “aqlli” qishloq xoʻjaligi kabi sohalarida qoʻshma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Joriy yil yakuniga qadar Oʻzbekiston – Iordaniya hukumatlararo komissiyasi hamda Ishbiarmonlar kengashining ilk yigʻilishlarini oʻtkazish, shuningdek, biznes-forum tashkil etish taklif qilindi. Bunday tadbirlar ishbiarmon doiralari

oʻrtasida aloqalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Qolaversa, poytaxtlar oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlarni yoʻlga qoʻyish va vizasiz rejimni joriy etish masalalari koʻrib chiqildi. Bu tashabbuslar sayyohlar oqimi va ishbiarmonlar aloqasini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Kelgusida madaniy, taʼlim va turizm sohalarida almashinuvlar faollashtiriladi. Qoʻshma madaniyat haftaliklari, koʻrgazmalar va konsertlar oʻtkazish, umumiy maʼnaviy merosni oʻrganish boʻyicha hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Bu tashabbuslar Buxorodagi mahobatli masjidlardan tortib, Ajlun qalʼasi kabi Iordaniyaning tarixiy yodgorliklarigacha boʻlgan mamlakatlarni birlashtiruvchi umumiy islom merosini mustahkamlaydi.

Shuningdek, islomshunoslik markazlari va ilm-fan muassasalari oʻrtasida yaqin aloqalar oʻrnatilishi rejalashtirilmoqda. Podshoh Abdulla II ibn al-Husaynning “Aqaba jarayoni” tashabbusi Oʻzbekiston tomonidan qoʻllab-quvvatlanib, uning navbatdagi yigʻilishi Samarqand shahrida oʻtkazilishi taklif etildi.

Davlat tashrifi doirasida Prezidentimiz Iordaniyaning “An-Nahda” (“Renessans”) ordeni bilan taqdirlangani oʻzaro hamkorlikni kengaytirish borasidagi saʼy-harakatlarning munosib eʼtirofi boʻldi, desak, yangilishmaymiz.

Oʻz navbatida, mazkur tashrif Osiyoning turli burchaklarida joylashgan ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, strategik sheriklikni chuqurlashtirish va koʻp qirrali aloqalarni kengaytirishda yangi sahifa ochadi.

Mavluda ADHAMJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

SAMARASI BEQIYOS TASHRIF

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn oʻrtasidagi muzokaralarda siyosiy muloqotni yanada kuchaytirish, madaniy-gumanitar almashinuvni boyitish va savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga doir masalalar koʻrib chiqildi. Ikki mamlakat rahbarlari BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi faol sheriklikni alohida taʼkidlab, tashabbuslarni oʻzaro qoʻllab-quvvatlashga kelishib oldi.

Tashrif doirasida qator amaliy yoʻnalishlar boʻyicha kelishuvlarga ham erishildi. Kimyo va toʻqimachilik tarmoqlari, “aqlli” qishloq xoʻjaligi, geologiya, farmatsevtika hamda sogʻliqni saqlash, shuningdek, turizm sohalarida hamkorlikni kengaytirish rejasini belgilandi.

Hukumatlararo komissiya va Ishbiarmonlar kengashi faoliyatini yoʻlga qoʻyish, yil yakuniga qadar ularning ilk yigʻilishlarini oʻtkazish hamda Oʻzbekiston – Iordaniya biznes forumini tashkil etish orqali uzoq muddatli hamkorlik poydevori mustahkamlanadi.

Madaniy, taʼlim va turizm yoʻnalishlarida qoʻshma tadbirlar – madaniy haftaliklar, koʻrgazmalar, konsertlar va ekspozitsiyalar oʻtkazish orqali xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik rishtalari yanada mustahkamlanishi koʻzda tutilgan.

Shu bilan birga, islomshunoslik markazlari va ilmiy muassasalar oʻrtasida hamkorlikni rivojlantirish, maʼrifatli islom gʻoyalari tarqʻib qilish boʻyicha ham kelishuvga erishildi. Prezident Sh. Mirziyoyev “Aqaba jarayoni” tashabbusini yuqori baholab, uning navbatdagi yigʻilishlaridan birini Samarqandda oʻtkazish taklifini bildirdi.

Tashrifning amaliy samarasi sifatida 15 ta muhim hujjat imzolandi. Ular ekstraditsiya, investitsiyalarni himoya qilish, viza talablarini bekor qilish, oliy taʼlim va ilmiy tadqiqotlar, turizm, qishloq xoʻjaligi, veterinariya, standartlashtirish hamda din ishlari sohalaridagi kelishuvlarni oʻz ichiga oladi. Bu kelishuvlar ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlarni institutsional asosda yangi bosqichga olib chiqadi.

Ishbiarmonlik aloqalarini kuchaytirish maqsadida poytaxtlar oʻrtasida muntazam aviaqatnovlarni yoʻlga qoʻyish va vizasiz rejim joriy etish imkoniyatlari ham muhokama qilindi. Bu orqali oʻzaro savdo hajmini oshirish hamda sayyohlar oqimini koʻpaytirish rejalashtirilgan.

Bu tashrif ikki mamlakat munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishda yangi sahifa ochdi. Muzokaralar chogʻida erishilgan kelishuvlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar,
madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

ISTIQBOLNI KOʻZLAGAN DIPLOMATIYA



Xususan, Iordaniya Podshohining “Aqaba jarayoni” tashabbusini yuksak baholagan Oʻzbekiston Prezidenti uning yigʻilishlaridan birini Samarqandda oʻtkazishni taklif qildi. Bu esa bagʻrikenglik va maʼrifiy islom gʻoyalariini targʻib qilishda Oʻzbekistonning roli tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu tariqa Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni koʻzlagan diplomatiyasi va rahbarligi tufayli Oʻzbekiston Iordaniya bilan har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini shakllantirish, uning xalqaro nufuzini mustahkamlash va uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratish yoʻlida muhim qadam tashladi.

Pan DAVEY,
Shanxay Ijtimoiy fanlar akademiyasining
Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarini
oʻrganish markazi professori (Xitoy):



– Oʻzbekiston tashqi siyosatda ochiqlik va koʻp yoʻnalishlilik strategiyasini izchil amalga oshirmoqda. Soʻnggi yillarda Toshkent Yaqin Sharq davlatlari bilan samarali hamkorlikni kengaytirishga alohida eʼtibor qaratmoqda.

Oʻzbekiston va Iordaniya islomiy sivilizatsiyaning muhim markazlari sifatida xalqaro maydonda oʻziga xos oʻrin egallaydi. Tarixan Toshkent islom ilm-fani, madaniyati va taʼlimining yirik markazi boʻlib kelgan, buning yaqqol dalili sifatida Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi buyuk olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

Ammon esa, oʻz navbatida, muqaddas joylarning himoyachisi va dinlarga muloqot markazi sifatida tanilib, anʼanalar bilan zamonaviy texnologiyalar va iqtisodiy taraqqiyotning uygʻunligini taʼminlashda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ikki davlat ham Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalarida barqarorlik hamda rivojlanish jarayonlarini qoʻllab-quvvatlashda muhim rol oʻynamoqda. Ularning siyosiy, madaniy va iqtisodiy hamkorligi mintaqaviy integratsiya hamda hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilayotir.

Oʻzbekiston va Iordaniya oʻrtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal surʼatlarda rivojlanmoqda. Iordaniya farmatsevtika hamda kimyo sanoati, toʻqimachilik, shuningdek, oʻgʻitir va qurilish materiallari ishlab chiqarish boʻyicha kuchli sanoat salohiyatiga ega. Mamlakat fosfat va kaliy zaxiralari bilan mashhur boʻlib, ularning eksporti iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoyda Iordaniya Podshohining Oʻzbekistonga ilk rasmiy tashrifi tarixiy voqea sifatida qabul qilinib, ikki tomonlama hamkorlik yangi bosqichga koʻtarilgani yuksak baholanmoqda. Ikki davlat rahbarlari ishtirokida oʻtkazilgan sanoat koʻrgazmasi, investitsiyalarni oʻzaro ragʻbatlantirish va himoya qilish boʻyicha kelishuvlar, vizasiz rejimni joriy etish, turizm va qishloq xoʻjaligi sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga doir bitimlar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va sayyohlik oqimini oshirish uchun katta imkoniyatlarni ochyapti.

Qishloq xoʻjaligi, toʻqimachilik sanoati, energetika kabi sohalaridagi hamkorlik alohida eʼtiborga loyiq. Iordaniya kompaniyalari Oʻzbekistondagi infratuzilma loyihalarida qatnashishga faol qiziqish bildirmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning yangi istiqbollarini ochyotir.

Maks SEY,
“Kingsley Strategic Institute” tahlil markazi
ijrochi direktori (Malayziya):

– Sammit oʻtkaziladigan joy sifatida qadimiy Samarqand tanlanishi ushbu tadbirning ramziyilgini taʼkidlab, ikki davlatning muloqotni chuqurlashtirishga intilishidan dalolat beradi.



Yaqin Sharqning koʻplab davlatlari Oʻzbekiston rahbariyatining Falastin masalasidagi konstruktiv pozitsiyasini, mamlakatning insonparvarlik tashabbuslarini, mintaqada tinchlik oʻrnatishga boʻlgan samimiy istagini yuksak qadrlamoqda.

Anʼanaga koʻra, Yaqin Sharq diplomatiyasida muhim rol oʻynaydigan Iordaniya Oʻzbekistonni mintaqaviy mojarolarni adolatli hal etishga koʻmaklashishda ishonchli hamkor, deb biladi. Toshkentning Falastin xalqini qoʻllab-quvvatlash va tinch yoʻl bilan kelishuvga chaqiruvi arab davlatlari poytaxtlarida oʻz javobini topmoqda, bu esa Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq oʻrtasida mintaqalararo hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Iordaniya Oʻzbekiston bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga katta qiziqish bildiriyapti. Bu ikki davlat savdo-sanoat palatalari oʻrtasida yaqinda imzolangan oʻzaro anglashuv memorandumini bilan ham tasdiqlandi. Har ikki davlat boy tarixiy merosga ega. Agar Oʻzbekiston qadimda Buyuk Ipak yoʻlining markazi va islom sivilizatsiyasi ravnaq topgan maskan boʻlgan boʻlsa, Iordaniya YUNESKO roʻyxatiga kiritilgan qadimiy savdo yoʻllari va arxeologik yodgorliklarning saqlovchisi hisoblanadi. Ushbu tarixiy meros Oʻzbekiston bilan arab davlatlari, jumladan, Iordaniya oʻrtasidagi zamonaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Goʻzel MAYTDINOVA,
Geosiyosiy tadqiqotlar markazi direktori,
Rossiya – Tojikiston (slavyan) universiteti
professori:



– Iordaniya Podshohining davlat tashrifi Oʻzbekistonning 2025-yildagi diplomatik taqvimidagi eng muhim voqealardan biri boʻldi. Bu 1993-yil 15-fevralda boshlangan Oʻzbekiston – Iordaniya munosabatlarining izchil rivojlanishining choʻqqisi va ikki davlat aloqalarini yanada yuqori

bosqichga koʻtarish istagini oʻzida aks ettirdi.

Geosiyosiy nuqtayi nazardan, tashrif Oʻzbekiston uchun Yaqin Sharqdagi va islom olamidagi mavqeyini mustahkamlovchi qadam sifatida muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekiston – Iordaniya munosabatlari mustahkamlangani rasmiy Toshkent faol ravishda aloqalarni kengaytirayotgan Koʻrfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi mamlakatlarga yuborilgan muhim signaldir. Iordaniya uchun mazkur tashrif Markaziy Osiyodagi siyosiy ishtirokini kengaytirish yoʻlidagi qadam boʻlib, bu Ammonning tashqi siyosiy aloqalarni diversifikatsiya qilish kursiga mos keladi. Butun Markaziy Osiyo uchun esa ushbu tashrif “Markaziy Osiyo – Yaqin Sharq” muloqotini rivojlantirish uchun asosni mustahkamlaydi.

Tashrif davomida imzolangan muhim hujjatlar toʻplami muntazam muloqot, siyosiy-huquqiy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish, investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish, yangi savdo kanallarini ochish, qishloq xoʻjaligi hamda logistika sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun institutsional asos boʻlayotir. Mazkur huquqiy hujjatlar, shuningdek, Oʻzbekiston – Iordaniya munosabatlarini uzoq muddatli strategik rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida Oʻzbekiston Prezidentini Iordaniyaning “An-Nahda” ordeni bilan taqdirlash marosimi boʻlib oʻtdi. Bu Iordaniya tomonidan koʻp qirrali sheriklikni kengaytirishga qaratilgan saʼy-harakatlarga hurmat va eʼtibordan dalolat beradi.

Oʻlaymanki, Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning Oʻzbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikning yangi modelini shakllantirishda muhim bosqich boʻldi, bunda Oʻzbekiston va Iordaniya qoʻllab-quvvatlovchi boʻgʻin sifatida harakat qilishi mumkin.

“Dunyo” AA.

ISTIQLOL – YUKSAK MARRALAR, BUYUK MAQSADLAR SARI ILHOMLANTIRUVCHI KUCH



Birgina misol: soʻnggi yillarda davlatimiz rahbarining shaxsan tashabbusi bilan paxta yakkahokimligiga butunlay barham berildi, paxtachilik tarmogʻi tubdan qayta tashkil etildi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga klaster tizimi joriy qilingani qisqa muddatda bu sohada ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi. Daladan boshlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha boʻlgan toʻliq jarayon uzluksiz tizim asosida yoʻlga qoʻyildi.

Toʻqimachilik sanoati deyarli noldan qayta shakllantirildi. Bugun 6 mingdan ziyod mana shunday ishlab chiqarish korxonalarida 570 mingdan ortiq odamlar ish bilan band. Ishlab chiqarish hajmi esa bundan sakkiz yil oldingiga nisbatan 4,2 baravar ortib, 8,2 mlrd. dollarga yetdi (esingizdami, bundan oʻn yil ilgari biz paxta xomashyosini sotishdan jami boʻlib bir milliardga yetar-yetmas daromad qilar edik). Ekspert 3,1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Eng muhimi, bu oʻzgarishlar minglab odamlarni ish bilan muqim taʼminlash imkonini berdi. Oʻzbekiston esa tayyor mahsulot sotuvchi sanoat mamlakatiga aylandi.

Biz birgina sohadagi yangilanishlarni iqtisodiy manfaatdorlik nuqtayi nazaridan tahlil qildik, xolos. Buning ijtimoiy ahamiyati ham kam emas. Shu oʻrinda majburiy mehnatga qarshi faol kurash olib borilgani, natijada oʻqituvchilar, shifokorlar va talabalar turli dala ishlariga safarbar qilinishiga butkul chek qoʻyilganini aytib oʻtish zarur.

Bunday tub oʻzgarishlarni bugun barcha sohalar misolida keltirish mumkin. Albatta, bularning barchasi Prezidentimiz tomonidan qoʻyilgan Oʻzbekistonnii ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan chinakam mustaqil, kuchli hamda tenglar ichra teng buyuk davlatga aylantirishdek ulugʻvor maqsad yoʻlida tashlanayotgan salmoqli odimlardir.

2016-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi jihatidan dunyodagi 195 davlat orasida 71-oʻrinni egallagan. 2024-yil yakunlariga koʻra, YAIM 115 mlrd. dollarga yetdi va Oʻzbekiston global roʻyxatda 62-oʻrinni egalladi. Bu sakkiz yilda iqtisodiyot real hajmi 1,6 barobar oʻsganini koʻrsatmoqda.

Turli nizo va ziddiyatlar tufayli jahon iqtisodiyoti gʻoyat murakkab davrni boshidan oʻtkazayotgan bir vaqtda, pragmatik va proaktiv siyosat tufayli bu yil birinchi yarim yillikda iqtisodiyotimiz 7,2 foiz oʻsdi.

Xususiy mulkka munosabatning tubdan oʻzgargani, unga keng yoʻl ochilgan iqtisodiy islohotlar natijadorligini taʼminlashda eng asosiy omil boʻlayotgani ham ayni haqiqat. Kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishga qaratilayotgan katta eʼtibor natijasida soʻnggi besh yilda kichik va oʻrta tadbirkorlar soni ikki baravarga koʻpaydi. Iqtisodiyot hajmining yarmidan koʻpi, sanoat mahsuloti va eksportning uchdan bir qismi kichik va oʻrta biznes subyektlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, joriy yilning birinchi yarim yilligida aholining umumiy daromadidagi tadbirkorlik ulushi 57 foizni tashkil etgan. Albatta, bu raqamlar tadbirkorlik rivoji nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizga ham oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatishini yaqqol isbotlab turibdi.

Yaqinda Prezidentimiz, anʼanaga koʻra, tadbirkorlarni bilan beshinchi marta uchrashdi. Anjumana biznesni “soya”dan chiqarishni ragʻbatlantirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga har tomonlama koʻmaklashish, xususan, ijobiy natijalarga erishayotgan tadbirkorlik subyektlariga soliq hamda bojxona imtiyozlari kabi koʻplab yangiliklar eʼlon qilindi. Bir soʻz bilan aytganda, davlat va biznes oʻrtasidagi oʻzaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilib kelayotgan muloqotlarning bu galgisi ham ishbilarmonlarga marrani yanada baland olishlari uchun yangicha kuch bagʻishladi.

Xalqimiz manfaati uchun aytilgan har bir gap tez fursatda

amalga koʻchdi, davlatimiz rahbari “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonga oʻsha kuniyoq imzo chekdi. Unda yaqin ikki yilda tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, zarur moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlar, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda qulayliklar yaratish va turizmnii rivojlantirish, soliq toʻlovchilarni ragʻbatlantirish kabi yoʻnalishlarda muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Shu oʻrinda Farmonda nazarda tutilgan yangi qonunchilik hujjatlari loyihalarining sifatli ishlab chiqilishida parlament, xususan, Senat ham faol ish olib bormoqda.

Xalq bilan muloqot – faoliyatimizning asosiy mezoni

“Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq.”

“

Senat aʼzolari, mahalliy Kengashlar deputatlari, Senat devoni xodimlaridan iborat ishchi guruhlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha dasturlar hamda Prezidentimiz tashrifi davomida berilgan vazifalar ijrosini oʻrganib bormoqda. Oʻrganishlar natijalari Senat Kengashining hududlarda oʻtkazilayotgan sayyor majlislarida masʼul vazirlik va idoralar vakillari, viloyat, tuman rahbarlari ishtirokida bafurja muhokama qilinib, ularning har biri uchun alohida “Yoʻl xaritasi” ishlab chiqilmoqda hamda ijrosi monitoring qilib borilmoqda.

”

Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi boʻladi. Xalq rozi boʻlsa, ishimizda unum va baraka boʻladi!”

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisida shu soʻzlarni aytganida barchamizning koʻnglimiz ravshan tortgan edi. Haqiqatan ham, davlat rahbari ishni xalq koʻngliga yoʻl topishdan boshladi. Aholi bilan yuzmayuz muloqot qilib, dardini eshitdi. Odamlarni qiynayotgan muammolarni uyma-uy, xonadonma-xonadon kirib aniqlash tizimini yoʻlga qoʻydi.

Uzoqni koʻzlab belgilangan maqsad va vazifalarning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-institutsional asoslari yaratildi. Xalqning ogʻirini yengil qilish, odamlarni oʻylantirayotgan, tashvishga solayotgan masalalarni vaqtda samarali yechish, hayot darajasi va sifatini yaxshilash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Ha, bugun barcha darajadagi rahbarlar, jumladan, deputat va senatorlar bejiz quyi boʻgʻinga, mahalla darajasiga tushib, aholi bilan bevosita uchrashib, ularning muammolarini joyida hal etishga urinishmayapti.

Bundan tashqari, 2017-yil mamlakatimizda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, deb eʼlon qilindi. Uning dasturiga xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qiladi, degan tamoyil asos qilib olindi.

Ochiq, uzoq yillar davomida xalq bilan rahbarlar oʻrtasidagi muloqotlar sustlashib, qogʻoz toʻldirish, jadvallar yasash bilangina shugʻullanadigan mutasaddilar koʻp edi. Fuqarolar turli tashkilotlar oʻrtasida yillab sarson boʻlardi, idoralar eshigi yonida oylab vaqt oʻtkazardi. Oqibatda davlat organlari bilan xalq oʻrtasidagi masofa anchagina uzoqlashib qolgandi. Shuning uchun bepisandlik holatlariga mutlaqo chek qoʻyildi.

Mamlakatimiz rahbari islohotlarni inson huquqlarini toʻliq roʻyobga chiqarishdan, xalq bilan davlat oʻrtasiga ishonch koʻprigini oʻrnatishdan boshladi. Bugun ana

shunday keng koʻlamli ishlarni amalga oshirish uchun rahbarlar kabinetlaridan chiqib, bevosita pastga, mahalla darajasiga tushib ishlamoqda. Eng muhimi, har bir xodim mehnatkash xalq, oddiy odamlarga yaqinlashib, ularning koʻnglidagi gaplarini oʻzidan eshitmoqda.

Ayniqsa, bu oʻrinda xalqdan ishonch olgan, uning vakili boʻlgan deputat va senatorlardagi masʼuliyatning yuki boshqalarga nisbatan zalvarliroq boʻlishi zarur. Shunday ekan, elimiz bergan bu rubtani siylov deb emas, katta masʼuliyat bilib, bizni saylagan yurtdoshlarimiz ishonchini, hurmatini qozona olishimiz kerak.

Yangi Oʻzbekistonda boshlangan keng koʻlamli islohotlar parlament yuqori palatasida ham oʻzgarishlar davrini boshlab berdi. Milliy parlament eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarga doir qarorlar qabul qilish hamda ularning ijrosini toʻlaqonli taʼminlash jarayonlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Shu maʼnoda, Senat asosiy

eʼtiborni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosini monitoring qilish, bevosita muloqotlar chogʻida aholi tomonidan aytilayotgan muammolarni hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sohani, xotin-qizlar, yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qoʻllab-quvvatlashga qaratib, bu borada tegishli iro organlari bilan hamkorlikda ish olib borayotganini aytib oʻtish mumkin.

Bu jarayonda mutasaddi vazirlik, idoralar, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga baho berish nuqtayi nazaridan emas, balki ular bilan birgalikda mavjud masalalarga samarali yechim topishga birlamchi eʼtibor qaratmoqdamiz.

Biz soʻnggi yillarda parlament nazoratini yoʻlga qoʻyish borasidagi ish uslubimizni tubdan oʻzgartirdik. Ijro hokimiyati vakillari bilan birgalikda mavjud muammoli masalalarni kompleks yondashuv asosida joyida hal etish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni belgilab, pirovardida ularning bajarilishiga erishmoqdamiz.

Senat aʼzolari, mahalliy Kengashlar deputatlari, Senat devoni xodimlaridan iborat ishchi guruhlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha dasturlar hamda Prezidentimiz tashrifi davomida berilgan vazifalar ijrosini oʻrganib bormoqda. Oʻrganishlar natijalari Senat Kengashining hududlarda oʻtkazilayotgan sayyor majlislarida masʼul vazirlik va idoralar vakillari, viloyat, tuman rahbarlari ishtirokida bafurja muhokama qilinib, ularning har biri uchun alohida “Yoʻl xaritasi” ishlab chiqilmoqda hamda ijrosi monitoring qilib borilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan hududlarni rivojlantirish borasidagi dasturlar ijrosini nazorat qilish, aholi muammolarini dadil koʻtarib chiqish hamda ularning hal etilishida mahalliy Kengashlar taʼsirchanligini oshirish vazifasi oldimizga qoʻyilgan edi. Birgalikda olib borayotgan faoliyatimiz davomida mahalliy Kengashlar mustaqil ravishda tegishli masalalarni oʻrganish, ularni Kengash majlislariga olib chiqish va hal etish boʻyicha amaliy choralar belgilash borasida ancha tajriba ortirdi.

Yangi Oʻzbekiston – ijtimoiy davlat

Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan oʻzaro manfaatli hamkorlik

davlatimiz siyosatining asosiy yoʻnalishiga aylandi. **“Yangi Oʻzbekiston – ijtimoiy davlat”** degan tamoyil Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. “Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, uning tub negizida insonni ulugʻlash, xalqqa xizmat qilishdek oliyanob maqsadlar yotadi.

Oʻtgan qisqa davrda ijtimoiy siyosat yoʻnalishida qabul qilingan qonunlar soni ikki barobar koʻpaydi. Bu borada 1992 – 2016-yillarda 24 ta qonun qabul qilingan boʻlsa, 2017 – 2024-yillarda bu koʻrsatkich 44 tani tashkil etdi. Davlat byudjetidan taʼlim va tibbiyot sohaciga ajratilgan mablagʻlar sezilarli darajada koʻpaydi. Aytaylik, 2016-yilda maktabgacha taʼlim qamrovi 27 foiz boʻlgan. 2025-yilga kelib, bu raqam 76 foizga yetdi. Oliy taʼlimga qamrov 9 foizdan 42 foizga yetdi.

Tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal isteʼmol xarajatlaridan kam boʻlmagan darajaga olib chiqildi. 2017-yilda kam taʼminlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan boʻlsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga koʻmak berilmoqda. Ajratilayotgan mablagʻ esa 7 barobar koʻpaytirilib, yiliga 11 trln. soʻmga yetdi.

Kam daromadli oilalar farzandlarini parvarish qilish boʻyicha nafaqalar qamrovi kengaytirildi, nafaqa tayinlashda hisobga olingan bolalarning yoshi 14 dan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur toʻlov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori oʻrtacha 1,5 barobar koʻpaydi. 2022-yildan boshlab oilaning har bir aʼzosiqa jami bir oylik oʻrtacha daromad minimal isteʼmol xarajatlari miqdoridan oshmaganda oila kam taʼminlangan, deb eʼtirof etilishi belgilab qoʻyildi. Ularni aniqlash va manzilli yordam koʻrsatish maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi joriy qilindi, kam taʼminlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda toʻrt barobar oshib, 1,9 millionga yetdi.

Aynan Konstitutsiyamizga tayangan holda Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi boʻlgan 2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan 100 ta maqsad doirasida Yangi Oʻzbekistonnii barpo etish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar boshlandi.

“

Soʻnggi yillarda milliy parlamentimiz Parlamentlararo Ittifoq, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi, Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari forumi kabi xalqaro tuzilmalar ishida faol qatnashib, dolzarb mintaqaviy hamda global miqyosdagi masalalarga doir taklif va tashabbuslarni dadil ilgari surib kelmoqda.

”

Ayniqsa, soʻnggi sakkiz yilda Yangi Oʻzbekistonnii barpo etish borasidagi keng koʻlamli islohotlar samarasida ijtimoiy-siyosiy manzara tubdan oʻzgardi.

Raqamlar kesimida yana bir muhim maʼlumotni keltirish oʻrinli, nazarimizda. Yurtimizda 2019 – 2024-yillarda 180 mingga yaqin oilalar arzon uy-joy bilan taʼminlandi. Aholi uchun yoʻnaltirilgan ipoteka krediti miqdori 4 barobar oshirildi. Kam taʼminlangan oilalar uchun kommunal subsidiyalari, ijtimoiy ipoteka mexanizmlari joriy etildi. Bular, albatta, qisqa vaqt ichida erishilgan qator yutuqlarning kichik misoli, xolos.

Kambagʻallikka qarshi katta islohotlar

Hayot bor ekan, yangilanishga ehtiyoj sezilaveradi. Yildan-yilga koʻproq eʼtibor qaratilayotgan yoʻnalishlardan biri, shubhasiz, ijtimoiy sohadagi islohotlardir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi salmoqli oʻzgarishlar haqida soʻz yuritganda, kambagʻallik darajasini qisqartirish chora-tadbirlari haqida toʻxtalib oʻtish joiz, albatta.

“Mening eng katta niyatim – mamlakatimizda kambagʻallik va ishsizlikka butunlay barham berishdir, – deb yozadi Prezidentimiz “Hozirgi zamon va yangi Oʻzbekiston” kitobida. – **Shunday kunlar kelishiga ishonchmii komil va buning uchun bor kuch va imkoniyatlarimni, borligʻimni bagʻishlashga tayyorman”.**

Shu asosida keyingi yillarda yurtimizda bu masalaga yondashuv tubdan oʻzgargani, yangi tizim yaratilgani va u doimiy takomillashib borayotgani real raqamlarda koʻrinib turibdi.

2021-yilda aholining 17 foizi kambagʻallik chizigʻidan pastda yashagan boʻlsa, 2023-yilga kelib bu koʻrsatkich 11 foizgacha pasaygan. 2024-yilda kambagʻallik darajasi 8,9 foizga tushib, 719 ming kishi kambagʻallikdan chiqarilgan. 2025-yil yakuni bilan kambagʻallikni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilindi. Xususan, joriy yilda 5 mln. 200 ming kishini ish bilan taʼminlash, 1,5 mln. fuqaroni kambagʻallikdan chiqarish, 42 mlrd. dollar toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya jalb etish va eksport qiymatini 30 mlrd. dollardan yuqoriga olib chiqish rejalashtirilgan.

Umumiy qiymati qariyb 14 mlrd. dollarlik 8000 ta loyiha amalga oshirilib, 272 mingta doimiy ish oʻrni ochish moʻljallangan. Rejaga kiritilgan ushbu maqsadlar boʻyicha hozir jadal harakatlar ketmoqda.

Kambagʻallikni qisqartirish maqsadida ijtimoiy yordamning yangi va samarali mexanizmlari joriy etildi. **“Temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, mahallabay va xonadonbay** ishlash usullari orqali yordam va koʻmakka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari oʻz joyida aniq oʻrganilmoqda, ular vaqtda va samarali hal etilmoqda. Aytish kerakki, bu strategik natija boʻladi, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishda davom etishiga ishonch mustahkamlandi.

Keksalar, nogironligi borlar, ogʻir ahvolga tushib qolgan insonlarni qoʻllab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat koʻrsatish kabi ezgu anʼanalar amaliy harakatlar bilan boyidi. **“Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Besh muhim tashabbus”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”** kabi dasturlar natijasida ming-minglab odamlarimizning ruhi koʻtarildi, hayotga ishonchi ortdi. Bir soʻz

bilan aytganda, kambagʻallikni qisqartirishga yoʻnaltirilgan dasturlar tufayli millionlab oilalar hayotida ijobiy oʻzgarishlar yuz beryapti.

Oson boʻlmagan, qatʼiy qoʻyilgan vazifalar nafaqat shu kunlarga, xalqimiz kelajagiga qaratilganini yaxshiroq tushunish uchun murakkab vaziyatdan chiqib ketayotgan oiladagi muhitni, kayfiyatni yaqindan bilish yetarli boʻladi. Yillar mobaynida tayinli bir ishning boshini tutib, roʻzgʻoriga yaxshi yegulik olib kela olmagan otaning oʻz ishini yoʻlga qoʻyayotgani, daromad koʻrayotgani, ayoli, farzandlaridan ortib, qoʻni-qoʻshnilarga qoʻshilib, mahallada koʻrinish berayotganida qancha fikr, qancha xulosa, qancha ibrat va shukronalik bor?!

Ha, bu yilgi mustaqillik bayrami ana shunday baland marralar, katta natijalar va buyuk maqsadlar tantanasi sifatida ham keng nishonlanmoqda. Ularning taʼrif va tavsifini bir maqolaga sigʻdirish mushkul. Eng muhimi, buni har birimiz hayotimiz, turmushimiz misolida koʻryapmiz. Biz ana shunday ulkan imkoniyatlarga toʻla, qadrimiz baland, qaddimiz tik davrda yashayapmiz. Yangi Oʻzbekistonnii barpo etishga kirishilgan tarixiy yangilanish jarayonlarining har bir yili katta yutuqlar, beqiyos oʻzgarishlar bilan boshlanayotgani har birimizning koʻnglimizni togʻdek koʻtaradi, albatta.

Yangi Oʻzbekiston dunyoga yuz tutmoqda

Ochiq va pragmatik, tashabbuskor tashqi siyosat Oʻzbekistonning oʻziga xos “tashrif qogʻozi”ga aylangani xorijiy davlatlar rahbarlari hamda xalqaro ekspertlar tomonidan ham eʼtirof etilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining oliy darajadagi tashriflariga eʼtibor qaratsak, koʻplab muhim jihatlar koʻzga yaqqol tashlanadi. Keling, xalqaro maydondagi aloqalarimiz geografiyasiga bir nazar tashlaylik: hozir tashqi siyosatimiz doirasi nafaqat Markaziy Osiyo, MDH yoki Osiyoning yetakchi mamlakatlari, balki Yaqin va Oʻrta Sharq, Yevropa yoʻnalishlarini ham qamrab olmoqda. Bu tashqi iqtisodiyotni sezilarli darajada diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Barcha qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro manfaatli munosabatlarni tizimi shakllangan, barcha sohalar kesimida har bir qoʻshni mamlakat bilan samarali hamkorlik yoʻlga qoʻyilganini aytmaymizmi?! Qozogʻiston, Tojikiston va Ozarbayjon bilan itifoqchilik munosabati oʻrnatildi. Bu saʼy-harakatlar, albatta, mintaqada barqaror rivojlanayotgan makon yaratish sari tashlangan muhim va dadil qadamdir.

Bugun Yangi Oʻzbekistonning dunyoga ochiqligi, shaffofligi, pragmatik va konstruktiv ruhdagi siyosati oʻziga xos ijobiy jihatlari bilan namoyon boʻlmoqda. Xalqaro siyosiy ekspertlar fikricha, mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlari bilan birga integratsiyaning yangicha ruhini koʻrsata oldi. Buning zamirida qadriyati, mentaliteti va dini yagona, tili bir-biriga yaqin davlatlarning integratsiya sari umumiy intilishi yetibdi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil tashqi siyosatda juda qizgʻin, serqirra faoliyat olib bordi. Xususan, xorijiy davlatlarga amalga oshirilgan tashriflari soni 17 tani tashkil etib, 260 dan ortiq ikki va koʻp tomonlama xalqaro hujjatlar imzolandi. Yurtimizda xorijiy davlatlar rahbarlari va delegatsiyalari bilan 100 ga yaqin oʻtkazilgan uchrashuvlar jahonga yuz tutayotgan mamlakatimizning mavqei, dunyo hamjamiyatining tobora qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirishda, xususan, Senatning roli ham ortib bormoqda. Bu ayniqsa, davlatlararo yuqori darajada erishilgan kelishuvlarning ijrosi ustidan parlament nazorati oʻrnatilgani, ularning amalga oshirilishi qonunchilik nuqtayi nazaridan taʼminlanayotgani, shuningdek, hududlararo hamkorlikning samarali yoʻlga qoʻyilganida koʻzga tashlanmoqda.

Soʻnggi yillarda milliy parlamentimiz Parlamentlararo Ittifoq, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi, Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari forumi kabi xalqaro tuzilmalar ishida faol qatnashib, dolzarb mintaqaviy hamda global miqyosdagi masalalarga doir taklif va tashabbuslarni dadil ilgari surib kelmoqda.

Mana, shu yil aprel oyida Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi Toshkentda oʻtkazilganining oʻzi ham yurtimizda amalga oshirilayotgan va natija berayotgan keng koʻlamli islohotlar, demokratik yangilanishlarning xalqaro miqyosdagi ulkan eʼtirofi ekanini taʼkidlashni istardim. Bu parlamentimiz jahon parlamentarizmi darajasida oʻz ovozi va munosib oʻrniga egaligini, Oʻzbekistonning global dunyoda siyosiy vazni va mavqei tobora ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

ELCHILARNING HISOBOTLARI ESHITILDI

1 2 3 4 5 6